

# Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

## E'tibor bering:


- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 60,4 % tashkil etdi.
- 6304 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 26,8 birlikni tashkil qildi.

Toshkent shahrida hozirgi vaqtda kichik tadbirkorlik (biznes) ni rivojlantirish bo'yicha sezilarli darajada e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash, shuningdek, litsenziyalar va ruxsatnomalarning rasmiylashtirilishi shaffofligini tubdan soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmogda. Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirildi.

Natijada, 2019 yilning yanvar-martida 6304 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,9 barobar ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (54,4 %), sanoat tarmog'ida (13,8 %), qurilish tarmog'ida (7,3 %), yashash va ovqatlanishda (5,2 %), aloqa va axborotlashtirish (2,6 %), tashish va saqlash (2,8%) sohasiga to'g'ri keladi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (0,6%)

## 2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



## 2019 yilning yanvar- martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>55286</b>	<b>65353</b>	<b>10067</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>3055</b>	<b>6304</b>	<b>3249</b>
YaHM	%	62,2	60,4	-1,8
Sanoat	%	67,1	68,3	1,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	12,5	7,4	-5,1
Investitsiya	%	56,7	51,0	-5,7
Qurilish	%	68,3	67,9	-0,4
Savdo	%	60,1	61,6	1,5
Xizmatlar	%	50,6	48,1	-2,5
Yuk tashish	%	65,9	66,9	1,0
Yuk aylanmasi	%	12,8	12,7	-0,1
Yo'lovchi tashish	%	75,3	77,7	2,4
Yo'lovchi aylanmasi	%	79,7	79,2	-0,5
Eksport	%	18,2	24,1	5,9
Import	%	60,0	69,2	9,2

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar  
va mikrofirmalar**


*(birlikda)*

	<b>yanvar-mart 2018 y.</b>	<b>yanvar-mart 2019 y.</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>3221</b>	<b>6304</b>
<b>tumanlar:</b>		
<b>Uchtepa</b>	<b>271</b>	<b>1102</b>
<b>Bektemir</b>	<b>83</b>	<b>285</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>440</b>	<b>675</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>378</b>	<b>496</b>
<b>Mirobod</b>	<b>266</b>	<b>408</b>
<b>Shayxantoxur</b>	<b>328</b>	<b>616</b>
<b>Olmazor</b>	<b>338</b>	<b>841</b>
<b>Sergeli</b>	<b>187</b>	<b>348</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>265</b>	<b>359</b>
<b>Yashnabod</b>	<b>238</b>	<b>401</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>427</b>	<b>773</b>


2019 - yilning yanvar-martida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Uchtepa tumanida - 1102 ta, Olmazor tumanida - 841 ta, Chilonzor tumanida - 773 ta, Yunusobod, Shayxantohur, Mirzo-Ulug'bek va Mirobod tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 675-408 tani tashkil etgan.

Eng past ko'rsatkichni Yakkasaroy - 359 ta, Sergeli - 348 ta va Bektemir-285 tani tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil topgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar  
bo'yicha ulushi, foizda**



2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Uchtepa-17,5%, Olmazor-13,3%, Chilonzor - 12,3 %, Yunusobod - 10,7 %, Shayxontohur - 9,8 %, Mirzo-Ulug'bek - 7,9 % ni tashkil etdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*(birlikda)*

	<b>yanvar-mart 2018 y.</b>	<b>yanvar-mart 2019 y.</b>
<b>Jami</b>	<b>3221</b>	<b>6304</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	73	40
Sanoat	628	868
Qurilish	376	463
Savdo	798	3429
Tashish va saqlash	138	178
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	247	329
Axborot va aloqa	166	166
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	56	66
Boshqa turdagi xizmatlar	739	765

2019 yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 3429 ta, shuningdek :

**sanoatda** - 868 ta;

**qurilishda** - 463 ta;

**xizmatda** - 329 ta


**tashish va saqlashda** - 178 tani tashkil etdi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar

	yanvar-mart 2019 y.	yanvar-mart 2018 y.	farqi (+-)
Toshkent sh.	6304	3221	3083
Uchtepa tumani	1102	260	842
Chilonzor tumani	773	400	373
Olmazor tumani	676	333	343
Yunusobod tumani	675	462	263
Yashnabod tumani	401	230	171
Shayxontohur tumani	616	312	304
Mirzo-Ulug'bek tumani	496	356	140
Mirobod tumani	408	245	163
Yakkasaroy tumani	359	250	109
Sergeli tumani	348	176	172
Bektemir tumani	285	81	204


2019 yil yanvar-martida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Uchtepa tumanida – 842 ta, Chilonzor tumanida - 373 ta, Olmazor tumanida - 343 ta. Shayxontohur tumanida bu ko'rsatkich 304 tani tashkil etdi, Yunusobod tumanida - 263 ta, Sergeli tumanida - 172 ta. Yashnabod va Mirobod tumanlarida bu ko'rsatkich 171-163 tani tashkil etdi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda



2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 51,6 birlikda, Bektemir tumanida 46,4 birlikda, Mirobod tumanida 39,5 birlikda, Chilonzor tumanida 35,3 birlikda, Mirzo-Ulug'bek tumanida 27,3 birlikda, Yunusobod tumanida 27,2 birlikda, Uchtepa tumanida 23,9 birlikda, Sergeli, Yashnabod, Olmazor tumanlarida o'rtacha ko'rsatkich 22,1 - 20,2 birlik oralig'ida aniqlandi. Shayxontohur tumanida 19,3 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.


### 2019 yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 22,3 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 26,8 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 4,5 birlikka ko'paydi.




## Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-martida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 68,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 7,2 %, qurilishda - 67,9 %, investitsiyada - 51,0 %, savdoda - 61,6 %, eksportda - 24,1 %, importda - 69,2 % va xizmatlar sohasidagi - 48,1 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

## 2019 yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




## Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-mart holatiga, %

2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 60,4 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-martida 62,4 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2019 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmat</b>	<b>Investitsiya</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>68,3</b>	<b>67,9</b>	<b>48,1</b>	<b>51,0</b>
<i>tumanlar:</i>				
<b>Uchtepa</b>	<b>92,7</b>	<b>97,4</b>	<b>85,7</b>	<b>62,6</b>
<b>Bektemir</b>	<b>64,2</b>	<b>4,9</b>	<b>96,6</b>	<b>97,7</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>85,0</b>	<b>68,9</b>	<b>32,8</b>	<b>62,8</b>
<b>Mirzo-Ulug`bek</b>	<b>50,5</b>	<b>66,6</b>	<b>51,0</b>	<b>73,1</b>
<b>Mirobod</b>	<b>47,2</b>	<b>38,1</b>	<b>30,9</b>	<b>21,5</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>48,0</b>	<b>12,3</b>	<b>56,7</b>	<b>47,2</b>
<b>Olmazor</b>	<b>88,6</b>	<b>96,4</b>	<b>72,1</b>	<b>79,9</b>
<b>Sergeli</b>	<b>79,5</b>	<b>99,9</b>	<b>46,0</b>	<b>18,6</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>94,2</b>	<b>97,9</b>	<b>66,6</b>	<b>72,9</b>
<b>Yashnabod</b>	<b>62,6</b>	<b>99,3</b>	<b>34,4</b>	<b>55,8</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>75,9</b>	<b>80,2</b>	<b>46,0</b>	<b>81,5</b>

Hududlar bo`yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Yakkasaroy (94,2 %), Uchtepa (92,7 %) va Olmazor (88,6 %) tumanlari tashkil etadi.

**Qurilishda** - Sergeli (99,9 %), Yashnabod (99,3 %), Yakkasaroy (97,69 %), Uchtepa (85,7) va Olmazor (96,4 %) tumanlari tashkil etadi.

**Xizmatlar sohasida** Bektemir (96,6 %), Uchtepa (85,7 %), Olmazor (72,1 %) va Yakkasaroy (66,6 %) tumanlari tashkil etadi.

**Investitsiyada** - Bektemir (97,7 %), Chilonzor (81,5 %), Olmazor (79,9%), Mirzo-Ulug`bek (73,1%) va Yakkasaroy (72,9 %) tumanlari tashkil etadi.

# *Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2019 yilning yanvar–martida*

*Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6740,9 mlrd so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 68,3) yoki 2018 yilning yanvar-martida nisbatan o'sish sur'ati 103,5 %ni tashkil qildi;*

*2986,4 mlrd so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 51%) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 122,5%ni tashkil qildi;*

*1466,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari hajmining 67,9% ) bajarildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 116,7 %ni tashkil qildi;*

*6254,1 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 48,1) 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 %ni tashkil qildi;*


*Chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 61,6 % yoki 4546,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 106,8 %ni tashkil qildi;) shakllantirildi;*

*115,7 mln.dollari (umumiy export hajmining 24,1 %) miqdorida mahsulotlar (Tovar va xizmatlar) export qilindi, bu esa 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan 96,7% tashkil qildi;*

*Avtomobil transporti yuk aylanmasining 66,9% (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 3%) ko'payishi ta'minlandi;*


*Yo'lovchi aylanmasining esa 76,3%(umumiy yo'lovchi aylanmasining 2,7%) ni tashkil qildi;*

**Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %**




2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Bektemir tumanida - 99,5 %, Uchtepa tumani - 97,4 %, Chilonzor tumani - 91,6 %, Yakkasaroy tumani - 85,8 %, Shayxontohur tumani - 84,2 %, Yashnabod tumani - 77,8 %, Olmazor tumani - 42,7 %, Sergeli tumani - 34,4 % va Yunusobod tumanida - 12,9 %, eng past ko'rsatkichni Mirzo-Ulug'bek– 8,1 % va Mirobod tumanlari - 2,1% ni tashkil etdi.


## 2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Yashnabod tumani (928,2 mlrd.so'm), Olmazor tumani (885,2 mlrd.so'm), Chilonzor tumani (669,2 mlrd.so'm) va Yunusobod tumani (653,7 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Mirobod tumanida (492,4 mlrd.so'm), Yakkasaroy tumanida (475,7 mlrd.so'm) va Bektemir tumanida (430,3 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




## 2019 yil yanvar-mart holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Yakkasaroy tumani (94,2%), Uchtepa tumani (92,7%), Olmazor tumani (88,6%), Yunusobod tumani (85,0%), Sergeli tumani (79,5%), Chilonzor tumani (75,9%), Bektemir tumani (64,2%), Yashnabod tumani (62,6). Mirzo Ulug'bek tumani (50,5%), Shayxantohur tumani (48,0%), va Mirobod tumani (47,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.



## 2019 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo`yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Chilonzor (686,4 mlrd.so'm), Uchtepa tumani (667,5 mlrd.so'm), Yunusobod (569,6 mlrd.so'm), Shayxantohur (563,6 mlrd.so'm) va Bektemir (488,7 mlrd.so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.






## 2019 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Chilonzor tumani (227,1 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (202,5 mlrd.so'm), Yakkasaroy (185,2 mlrd.so'm) va Yashnabod (176,8 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.



## 2019 yil yanvar- martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o`shish sur`ati



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Shayxantohur tumanida (772,9 mlrd.so'm), Chilonzor tumanida (694,5 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (686,9 mlrd.so'm), va Mirobod (637,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil I - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 558 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalarini - 87 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 15,6 %i), qurilish - 45 (8,1 %), savdo - 264 (47,3 %), xizmatlar sohasi - 162 (29 %).


**2019 yil I - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Uchtepa va Olmazor tumanida - 14,0 % dan, Chilonzor tumanlarida - 13,1, Yunusobod tumanida - 11,3 %, Shayxantohur 9,8% , Mirzo Ulug'bek tumanida - 9,0 %dan, Yashnabod tumanlarida - 7,5 %dan, Yakkasaroy tumanida - 7,2 %, Sergeli tumanida 5,6%, Mirobod tumanida 5,0% va Bektemir tumanida 3,6% ni tashkil qildi.

*2019 yil 1-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar do'yi-cha taqsimlanishi.birlikda.*


2019 yil 1-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar do'yi-cha taqsumlanishi - Uchtepa va Olmazor tumanlarida 78 tadan, Chilonzor tumanida 73ta, Yunusobod tumanida 63 tani, Shayxantaxur tumanida 55 ta, Yashnabod va Mirzo Ulug'bek tumanlarida 50 tadan, Yakkasaroy tumanida 40 ta, Sergelida 31 ta, Mirobod tumanida 28 ta va Bektemir tumanida 20 tani tashkil etgan.



Kuzatuv ma'lumotlari tahliliga ko'ra, iqtisodiy vaziyatni 7,7% korxonalarda qulay, 67,6% korxonalarda qoniqarli, qurilish sohasida respondentlarning 0,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 5,9 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 4,1 % va 31,2 %, xizmatlar sohasida – 1,8 % va 19,9 %, sanoatda – 1,2 % va 10,6 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 3,7 %, qurilishda – 1,6 %, xizmatlarda – 7,3 % va savdoda – 12,0 %ni tashkil qildi.

### Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil I-chorak uchun, %



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 7,7 % sanoat korxonalari, 27,2 % – savdo, 15,8 % – xizmatlar va 5,4 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

## Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

### Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: J.Xolov

Tel.: (71) 230-88-09, 230-88-29